

## TURK OLIMLARI IJODIDA ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY-AXLOQIY MEROSI TAHLILI

Raximova Yulduz Dilmurod qizi  
Samarqand shahri Cambridge Unit School maktabi  
o'qituvchisi

## ANALYSIS OF THE PHILOSOPHICAL AND ETHICAL HERITAGE OF ALISHER NAVOIY IN THE CREATION OF TURKISH SCIENTISTS

Rakhimova Yulduz Dilmurodovna  
Teacher of Cambridge Unit School, Samarkand

## АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКОГО И ЭТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ТВОРЧЕСТВЕ ТУРЕЦКИХ УЧЕНЫХ

Рахимова Юлдуз Дильмуродовна  
Преподаватель Cambridge Unit School Самарканд



[yrahimova711@gmail.com](mailto:yrahimova711@gmail.com)

<https://orcid.org/0202-0244-0342-0422>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida uchraydigan axloqiy, diniy, falsafiy qarashlari yuzasidan turk olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar hamda bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida soʻz boradi. Bilamizki, Navoiy ijodi qimmatbaho gavhar. Uning merosi qaysi jihatdan oʻrganilmasin, yillar oʻtgan sari sayqallanib, biz kutmagan maʼnolar olamiga yetaklaydi. Shuningdek maqolada ham Hazrat Alisher Navoiy ijodidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar qardosh turk olimlari tomonidan qay darajada tahlil etilganligi haqida soʻz boradi. Bu borada esa turkiyalik adabiyotshunos olimlar Ogoh Sirri Levendning "Alisher Navoiy" nomli monografiyasi hamda Vahid Turkning "Turkiyada Alisher Navoiyning oʻrganilishi" nomli maqolalariga murojaat qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Ogoh Sirri Levend, falsafiy-axloqiy, diniy, Vahid Turk, monografiya, "Hayrat ul abror" dostoni, "Xamsa" dostoni.

**Abstract:** This article talks about the opinions expressed by Turkish scientists regarding the moral, religious and philosophical views found in Alisher Navoi's work, as well as the researches carried out until today. We know that Navoi's work is a precious gem. No matter how we study his legacy, it will be refined over the years and lead us to the world of unexpected meanings. This article also talks about how the socio-philosophical views of Hazrat Alisher Navoi's work have been analyzed by fellow Turkish scientists. In this regard, reference is made to the monograph "Alisher Navoi" by Turkish literary scholar Ogoh Sirri Levend and the articles "Study of Alisher Navoi in Turkey" by Vahid Turk.

**Key words:** Agoh Sirri Levend, philosophical-ethical, religious, Vahid Turk, monograph, "Hayrat ul Abror" epic, "Khamsa" epic.

**Аннотация:** В данной статье говорится о мнениях, высказанных турецкими учёными относительно моральных, религиозных и философских взглядов, содержащихся в творчестве Алишера Навои, а также об исследованиях, проводимых до сегодняшнего дня. Мы знаем, что работа Навои – драгоценная жемчужина. Как бы мы ни изучали его наследие, с годами оно будет уточняться и приведет нас в мир неожиданных смыслов. В этой статье также говорится о том, как социально-философские взгляды на творчество хазрата Алишера Навои анализировались коллегами-турецкими

учеными. В связи с этим ссылаются на монографию «Алишера Навои» турецкого литературоведа Ого Сирри Левенда и статьи «Исследование Алишера Навои в Турции» Вахида Тюрка.

**Ключевые слова:** Аго Сирри Левенд, философско-этический, религиозный, Вахид Тюрк, монография, эпос «Хайрат уль Аброр», эпос «Хамса».

**Kirish.** Azaldan bir-biriga qondosh bo'lgan, bir umumiy bobotil va yakto din ostida birlashgan turkiy xalqlar sivilizatsiya ildizlari hozirgi kunga qadar ma'lum va mashhur. Turkiy xalqlar adabiyoti, san'ati, ma'naviy-ma'rifiy dunyosini birlashtirib turadigan omillardan yana biri bu - Navoiy asarlari. Hazrat Alisher Navoiy ijodi, uning lirik va nasriy asarlarida ifodalangan falsafiy-axloqiy g'oyalar til, millat va yoki hudud tanlamaydi.

Bir qator turk olimlari tomonidan Navoiyning asarlari filologik til xususiyatlari, badiiy saviyasi bilan bir qatorda falsafiy jihatdan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Ogoh Sirri Levend, Mahmud Fiad Ko'pruzoda, Vohid Turk va boshqa turk olimlari Navoiy ijodi yuzasidan turli mavzudagi maqola va ilmiy tadqiqot ishlari Navoiy merosini har tomonlama tahlil qilishda yaqindan yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xususan, Ogoh Sirri Levendning "Alisher Navoiy" deb nomlangan 4 jildlik monografiyasida Navoiyning bolalik yillaridan tortib umrining so'nggiga qadar hayoti va badiiy merosi xususida so'z olib boradi. Olimning "Xamsa" asarida ifodalangan falsafiy-didaktik qarashlar va undagi qahramonlarning xarakteriga oid qimmatli mulohazalarini berib o'tadi.

Shu jumladan, olim shunday fikr yuritadi: "Navoiy asarlarida birlik, realizm va mantiq hukmrondir. U "Xamsa" tarkibidagi hikoyalarni yozish davomida Navoiy nazarda tutgan mavzuning asosiy g'oyasini unutmaydi, hikoya yuzasidan xulosalarni berib, ushbu g'oya atrofidagi voqealarni to'plash orqali barcha hikoyalarni bir mavzu ostida birlashtiradi". Ushbu fikrlar shunga ishora qiladiki, Navoiyning "Xamsa" tarkibidagi barcha dostonlar va ulardagi hikoyalar umumg'oya va mavzu ostida birlashadi hamda bir o'q atrofida aylanadi.

Ta'kidlash joizki Navoiyning asarlarida komil insonni kamol toptirishda falsafiy dunyoqarashga alohida e'tibor qaratadi. Shoirning yaratgan asarlari, jamiyatda milliy g'oyani rivojlantirishga oid fikrlari barcha insonlarni qiziqtirib kelmoqda. Jamiyatda komil insonni shakllantirish, mamlakat kishilarining sog'-

salomatligi, jismoniy baquvvatligiga, mustaqillikka munosabatini yuksaltirish borasida Navoiy yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga alohida e'tibor qaratgan. Bu borada "mutafakkir shoir bobomiz aytganlaridek, bu dunyoda er yigitning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo, o'z oilasi, Vatani va xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir" [1: 370].

Bugungi kunda Alisher Navoiyning asarlarini har tomonlama o'rganish, unga yangicha yondashish boshlandi. Bu yondashishlar orasida Alisher Navoiy asarlaridagi komil inson g'oyasini bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish va uni qaysi uslubni qo'llab yoritish masalasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu mavzu to'g'risida oxirgi yillarda turkum maqolalar nashr qilindi, bu esa komil inson g'oyasini tadqiq qilish hozirgi vaqtda g'oyat dolzarbligini ko'rsatadi.

**Muhokama va natijalar.** Olim Alisher Navoiyning ijtimoiy hayotdagi rolini ham eslab o'tadi. "Navoiy har bir yozgan g'azali yoki ijod mahsulida xalqning foydasini ko'zlagan. Shubhasiz ilk g'azallarini yoshlik hayajoni ichida ko'nglining sas-sadolariga quloq solib yozgan. Faqat turli xil voqealar ta'sirida ko'zini ichki dardini tashqi dardga aylantirishga to'g'ri kelganida, u o'z o'ylari va qayg'ulari borligini tezda angladi. Navoiy Hirotda Sulton Abu Said xizmatidan ayrilib Samarqandga ketishi yoki zo'rlab yuborilishida (quvg'in qilinishi nazarda tutilmoqda)" [2].

Ogoh Sirri Levend o'z monografiyasida Navoiy va din masalasidagi axloqiy-falsafiy qarashlarni tahlil qiladi: "Navoiy diniy va dunyoviy, miskinlarcha bir tavakkulda har narsadan qo'l-oyog'ini tortgan (ya'ni hamma dunyo tashvishlaridan voz kechgan) solik yoki so'fiylar kabi ish tutmaydi. Odam farzandining tabiat qarshisidagi o'z nasibasidan voz kechishni emas, dunyo ne'matlaridan foydalanishni oqilona yo'l deb biladi. Asosiysi hayotga muhabbat. Ilm-fan va san'at o'z ixtiyorimizda". Ushbu fikrlardan shuni anglashimiz mumkin-ki, Navoiy hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan naqshbandiylik ta'limoti tarafdori edi. Olim esa Navoiyning hayotga bo'lgan

muhabbati, ilm-fan va san'atga bo'lgan ishtiyoqi juda baland bo'lganligini e'tirof etadi. Uning fikricha, inson dunyo ne'matlaridan voz kechib tarkidunyo qilishi to'g'ri emas. Chunki dunyo go'zalliklari va ne'matlari - hammasi hazrati Odam va uning avlodlari uchun yaratilgandir.

Tadqiqotchi olim fikricha, Navoiyning tamoyiliga ko'ra inson butun kamchiliklari va nuqsonlari bilan insondir. Insonning hayvonlardan ayirib turadigan jihati esa Iymondir. Navoiy "Hayrat ul abror" dostonida iymon uchun alohida bob ajratgani ham insonning komil inson bo'lib shakllanishida muhim o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi [3]. Shu o'rinda olim Navoiyning islom dini ahkamlari va aqoidlar bilan bezangan asari – "Siroj ul muslimin" asarini ham tilga olib o'tadi. Navoiy ushbu asarning yozishdan maqsadini esa ushbu baytlarda keltiradi:

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,  
Ki, bo'lg'ay dini islom uyi ma'mur.  
Nekim, din ahlig'a bo'lg'ay zarurat,  
Bari tutqay ani bilgancha surat.  
Ham etkayman burun sharhi aqoyid  
Ki, islom ahlig'a bergay favoyid.  
Yana ham farz, ham vojib, sunnat ham,  
Nekim, oriz bo'lur yaxshi, yomon ham.  
Ki, din ahlining o'lg'ay dilnaziri,  
Musulmonlig' ishida noguziri.  
Bayon qilg'aymen andoq ravshanu pok  
Ki, idrok etgay oni xayli atrok.

Navoiyning diniy-ma'rifiy asarlari bo'yicha tadqiq olib borgan turk olimlaridan yana biri bu

Vahid Turk. Olim Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", "Munojot" "Chihil hadis", "Nazm ul javoir", "Siroj ul muslimin", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi Mulki ajam" kabi diniy-falsafiy kitoblarining matni va g'oyaviy-badiiy ahamiyati borasida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

**Xulosa** o'rnida shuni ayta olamizki, Navoiy ijodidagi badiiy, falsafiy-axloqiy g'oyalar insonni ruhan poklanishga, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Bunday xazinadan barcha xalq vakillari foydalansa, uni kelajak avlodga yetkazsa, Navoiy asarlari va uning shaxsiyatining umrboqiy bo'lishini ta'minlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild, –T.: O'zbekiston, 2019.
2. Agah Sirri Levend. Ali Sir Nevai. - Turkiye;1965.
- 3.Vahit Türk. Türkiye'de ali şir nevâyî çalışmaları.-Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, Sayı/Issue: 52 (Güz-Spring 2021) - Ankara, Türkiye
4. Alisher Navoiy. Siroj ul muslimin.- Toshkent; Fan-2000.
- 5.G'aybullaev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. –T.: Chashma print, 2008.

